

XALQARO

KONFERENSIYA

FAN, TA'LIM VA
INNOVATSIYALAR: NAZARIYA,
AMALIYOT, NATIJALAR

2024-YIL, 15-MAY

TASHKILOTCHI:
BUXORO
INNOVATSIYALAR
UNIVERSITETI



**TASHKILOTCHI VA HAMKOR
OLIV T'ALIM MUSSASALARI**



Aloqa:

Tel: +998 95 220 07 37

Email: innedu2024@gmail.com

Web: www.bui.uz





Hurmatli...!

Sizni Buxoro innovatsiyalar universitetida (BIU) kutib olishdan mamnunmiz. **“Fan, ta’lim va innovatsiyalar: nazariya, amaliyot, natijalar”** mavzusida ilmiy-nazariy anjumanda ijodiy va samarali faoliyat olib borishingizni tilab qolamiz!

Anjuman tashkilotchilari

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Buxoro davlat universiteti

Buxoro davlat pedagogika instituti

Muxtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti

Janibekov nomidagi Janubiy Qozog'iston pedagogika universiteti

Belgorod davlat universiteti

Garbiy Buyuk Britaniya universiteti

Necmettin Erbakan universiteti

Ege universiteti

Istanbul universiteti

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ISBN 978-9910-07-020-4



9 789910 070204

2024-yil, 15-may
Buxoro

68. TUB VA MURAKKAB SONLAR MAVZUSINI O‘QITISH	316
69. ARALASH SONLARNI QO‘SHISH VA AYIRISH MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLAR.....	320
70. INFORMATIKANI O‘QITISHDA DIDAKTIK TAMOYILLAR.....	324
71. THE ROLE OF MODERNITY AND INNOVATION IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING.....	328
72. OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM OLUVCHI XORIJIY TALABALARNING MOSLASHUV JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ...	333
73. RAQAMLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINI TA‘LIM TIZIMLARIGA INTEGRATSIYA QILISH IMKONIYATLARI.....	337
74. CONTRASTING APPROACHES IN TEACHING CADETS AND STUDENTS	342
75. INGLIZ TILI TA‘LIMIDA AKT- QISQA VAQT ICHIDA NATIJAGA EGA BO‘LISHNING BOSH OMILLARIDAN BIRI	346
76. GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI SAQLASH SHART-SHAROITI...350	
77. O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DIDAKTIK VA PEDAGOGIK TIZIMLARIDA AMALGA OSHIRILISHI.....	353
78. BO‘LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O‘QITUVCHILARI UCHUN KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN O‘QITISHNING ASOSIY MOHIYATI	357
79. TALABALAR KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	360
80. MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHI FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH.....	367
81. KELAJAKDAGI MAQSADLARGA ERISHISHDA PSIXOLOGIK MOTIVATSIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI.	371
82. TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA‘LIMNI TASHKIL QILISHNING INNOVATSION SHAKLI.....	374
83. FIZIKA DARSLARIDA TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FIZIKA VA INGLIZ TILI FANLARI INTEGRATSIYASINING ROLI.....	377
84. TA‘LIM JARAYONIDA VR VA AR TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI	381
85. BO‘LAJAK ZAXIRADAGI OFITSERLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHGA TA‘SIR ETUVCHI PEDAGOGIK OMILLAR	385
86. ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСИ	390
87. MALAKALI KADRLAR TAJRIBASI ASOSIDA HARBIY AVIATSIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	394
88. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОУЧ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ	398

78.BO‘LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O‘QITUVCHILARI UCHUN KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN O‘QITISHNING ASOSIY MOHIYATI

Sohibov Dilshod Becnazarovich

Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti (PhD)

Hozirgi kunda jamiyat axborot muhitining va mehnat bozorining jadal rivojlanishi natijasida, qaysi sohani olmaylik axborot texnologiyalarining o‘rni juda katta rol o‘ynaydi. Bugungi kunda olinayotgan ma’lumotlarning keskin ko‘payib borayotganligi sababli, ayni zamon o‘qituvchilari bu ma’lumotlarni qayta ishlab, undan foydalanish uchun yosh avlodga yetkazilishi kerak bo‘lgan bilimlar ham tabora ortib bormoqda. Bunda o‘qituvchi oldida dars soatlarini oshirmay turib, oldindan rejalashtirilgan bilimlar bilan bir qatorda eng yangi, oxirgi axborot va ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazib berishga ulgurish muammosi turibdi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi. O‘quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limdan ko‘zlangan maqsad shuki: o‘quvchini erkin va keng qamrovli fikr-mulohaza yuritadigan, muloqotga kirisha oladigan, ta’lim jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo‘llay oladigan barkamol shaxs qilib yetishtirishdir. Bugungi kunda umumta’lim maktablari oldiga, bir tomondan, tevarak-atrofdan sodir bo‘layotgan jarayonlarni to‘g‘ri talqin qiladigan, atrofidagi hodisalarga befarq qaramaydigan, ikkinchi tomondan, jamiyat hayotida tutgan o‘rni bo‘lib, o‘z ijobiy ta’sirini o‘tkaza oladigan har tomonlama mustaqil fikrga ega bo‘lgan, ziyoli shaxsni tarbiyalash vazifasi qo‘yilmoqda. Shu sababli bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari oldiga muhim vazifa o‘z o‘zini idrok etish salohiyati, yangi intellektual darajaga ega bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish asosiy vazifalardan biri qilib qo‘yilmoqda. Bunday tayyorlangan kadrlar nazariy tafakkur yuritish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishlari bilan birga o‘zining pedagogik faoliyatida kelajak avlodga ta’lim berishda juda katta mas’uliyat,

pedagogga xos bo'lgan umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, ta'limda axborot texnologiyalari, o'qitish metodika va o'z kasbining mohir mutaxassisi bo'lishi lozim.

Ma'lumki, "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'z xususiyatiga ko'ra fanlararo xarakterga ham ega bo'lgan kompleksli ilmiy yo'nalish hisoblanib, boshqa ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun u fan-texnika va ta'lim tizimlarida integrativ funktsiyani bajaruvchi fan sifatida tan olinadi. Shu sababdan ushbu fan egalari zimmlarida juda katta mas'uliyat turibdi. Chunki ular ta'lim bergan har bir shaxs o'z faoliyatini yana ham kengaytirish uchun mustaqil izlanish moboynda har qanday hodisaga duch kelishlari mumkin.

Shuning uchun bugungi kunda ta'lim sohasida o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni avtomatlashtirish yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirishning yetakchi bo'g'inligini ta'minlash;
- 2) barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish;
- 3) axborotlashtirish sohalarida me'yoriy bazalarni yaratish;
- 4) texnik ta'minotni – kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari, ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish.

Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat sohalarini tashkil qiladi. Axborot texnologiyalari sohasida bevosita ishlamaydigan odamlar ham kundalik ishlarida uning imkoniyatlaridan foydalanadi. Axborot texnologiyalari turmushning barcha sohalariga borgan sari ko'proq singib borib, uning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda yetishib kelayotgan yosh avlod bugungi rivojlanayotgan zamonda o'z o'rnini topishi va zamonaviy texnologik qurilmalardan bevosita to'la to'kis foydalanishlari uchun axborot texnologiyalar fani juda katta ahamiyat kasb etib, uni o'qitishda turli metodlar va zamonaviz texnologiyalardan foydalanish juda yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.R. Majidov Informatika fanini o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma) Toshkent – iqtisodiyot – 2019
2. Zaripov N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda webfreelance faoliyati //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
3. Зарипов Н. Н. Использование иностранного опыта в обучении информатике и информационным технологиям в школе //Проблемы современного образования. – 2020. – №. 6. – С. 213-218.
4. R.X. Alimov, G.T. Yulchiyeva, O.Q. Rixsimboyev, SH.A. Alishov “Axborot texnologiyasi va tizimlari”, Vorls-Nashriyot 141 Toshkent-2011.
5. S.S. G‘ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari.Darslik. Toshkent, “Sharq”, 2000. http://el.tfi.uz/images/Axborot_tizimlari_va_tehnologiyalari_2000_29df7.pdf
6. M.Mamarajabov, S.Tursunov, Kompyuter grafikasi va veb-dizayn.Darslik. T.: “Cho‘lpon”, 2013y. 350 b.
7. S.Tursunov, I Nazarov, Ta’limda axborot texnologiyalari. Darslik.
8. Toshkent.: «Adabiyot uchqunlari», 2019. 1-tom.262b.
9. S.Tursunov, I Nazarov, Ta’limda axborot texnologiyalari. Darslik.
10. Toshkent.: «Adabiyot uchqunlari», 2019. 2-tom.300 b.